**XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA VILOYATI KENGASHINING**

**Q A R O R I**

2024-yil 29-mart VI-66-35-11-0-K/24 Farg‘ona viloyati

**Viloyatda tashqi reklama ob’yektlarida (konstruksiyalarida) tashqi reklamani joylashtirish uchun oylik yig‘imlar miqdori qayta ko‘rib chiqish hamda tashqi reklama vositalarini o‘rnatish chizmalari bo‘yicha na’munaviy shakllarni ma’qullash to‘g‘risida**

Ma’lumki, tashqi reklama va ijtimoiy axborotni joylashtirish sohasini tizimli tartibga solish, mazkur yo‘nalishda qat’iy nazorat o‘rnatish, tashqi reklama bozorining ishtirokchilari uchun teng imkoniyatlar yaratib, mulk daxlsizligini ta’minlash hamda sohaga oid munosabatlarni raqamlashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 31 avgustdagi “Tashqi reklama va ijtimoiy axborotning aylanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 428-sonli qarori qabul qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan, 2023 yil 1 dekabrdan boshlab Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari tomonidan tuman va shaharlarning iqtisodiy rivojlanishidan kelib chiqib, yig‘im miqdorini belgilash hamda ularga 0,5 dan 3,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlarni qo‘llash tavsiya etilgan.

Shuningdek, tashqi reklama va axborot ob’yektlarini (konstruksiyalarini) o‘rnatish chizmalari, shuningdek, ularga o‘zgartirish va qo‘shimchalar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorgi Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari tomonidan ko‘rib chiqilib, ma’qullangandan keyin Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan tasdiqlanishi, bundan tashqari, ishlab chiqilgan tashqi reklama va axborot ob’yektlarini (konstruksiyalarini) o‘rnatish chizmasi loyihasi O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining hududiy organlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashlari bilan kelishilishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2020 yil 28 dekabrdagi VI-XXIV/123-sonli qaroriga asosan viloyat hududida tashqi reklama ob’yektlari uchun yig‘imlar (tariflar) miqdori ma’qullangan

O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi viloyat hududiy boshqarmasi 2024 yil 22 yanvardagi 01-07/285 - sonli xat bilan murojaat qilib, viloyatda tashqi reklama ob’yektlarida (konstruksiyalarida) tashqi reklamani joylashtirish uchun oylik yig‘imlar miqdori belgilash hamda tashqi reklama vositalarini o‘rnatish chizmalari bo‘yicha na’munaviy

shakllarni ma’qullash yuzasidan xalq deputatlari viloyat Kengashi qarori qabul qilinishini so‘ragan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 20 fevraldagi “Tashqi reklama bozorini tartibga solish to‘g‘risida”gi 104-sonli qaroriga asosan viloyat hokimining 2020 yil 27 fevraldagi “Tashqi reklama bozorini tartibga solish to‘g‘risida”gi 65-sonli qarori qabul qilingan.

Viloyatda jami 467 ta tashqi reklama konstruksiyalari mavjud bo‘lib, ulardan 24 tasi video ekranli tashqi reklama konstruksiyasi hamda 443 tasi tik turuvchi (bilbord, sitibord, megabord), tom ustki va devorlarda joylashtirlgan konstruksiyalardan iborat.

Mazkur tashqi reklama obektlari jami 22 ta tadbirkorlik subektlariga tegishli bo‘lib, umumiy hisobda yillik reklama uchun to‘lov miqdorlari 2 149,6 mln so‘mni tashkil qilinishi prognoz qilingan.

Bugungi kunga qadar jami tadbirkorlik subektlari tomonidan 2023 yil davomida 424,9 mln so‘m mablag‘lar kelib tushgan bo‘lib, ushbu mablag‘larning 45 foiz – tashqi reklama ob’ekti (konstruksiyasi) joylashgan (o‘rnatilgan) tuman (shahar) budjetiga, 45 foiz – O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va istemolchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining budjetdan tashqari Raqobatni rivojlantirishga ko‘maklashish jamg‘armasiga, 10 foiz – “Tasviriy oyina” ijodiy uyushmasining tegishli bo‘limlariga tushushi taminlangan.

Shuningdek, tuman (shahar) hokimliklari tomonidan tadbirkorlik subektlari bilan tashqi reklamalar uchun shartnomalar o‘z vaqtida imzolanmaganligi natijasida prognoz qilingan 1 724,6 mln so‘m mablag‘lar kelib tushmagan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 28 oktyabrdagi 239-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ga tartibga solinadigan narxlar (tariflar)ni shakllantirish, deklaratsiya qilish (tasdiqlash) va belgilash hamda ularning qo‘llanilishini davlat tomonidan nazorat qilish tartibi to‘g‘risida Nizomda narxlarni tartibga soluvchi organ - O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va uning topshirig‘i bo‘yicha - Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari moliya boshqarmalari etib belgilangan.

Shunga ko‘ra, Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi 2024 yil 7 fevraldagi 03-09/-01-18/631-sonli xulosa xati taqdim etib, Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi Farg‘ona viloyati hududiy boshqarmasining tashqi reklama ob’yektlari uchun yig‘imlar miqdorini bo‘yicha kiritgan tariflarini ma’qullagana holda mazkur masalani xalq deputatlari viloyat Kengashining navbatdagi sessiyasi kun tartibiga kiritilishi va kengashning tegishli qarori qabul qilinishiga e’tirozi yo‘qligini ma’lum qilgan.

Bundan ko‘rinib turibdiki, xalq deputatlari viloyat Kengashining 2020 yil 28 dekabrdagi VI-XXIV/123-sonli qarori bilan ma’qullangan viloyat hududida tashqi reklama ob’yektlari uchun yig‘imlar (tariflar) miqdorini o‘zgartirish talab etilmoqda.

Viloyatda tashqi reklama va ijtimoiy axborotni joylashtirish sohasini tizimli tartibga solish, mazkur yo‘nalishda qat’iy nazorat o‘rnatish, tashqi reklama bozorining ishtirokchilari uchun teng imkoniyatlar yaratish, bu borada deputatlik va jamoatchilik nazoratini olib borish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashi

**QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 20 fevraldagi 104-sonli hamda 2023 yil 31 avgustdagi 428-sonli qarorlari rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 31 avgustdagi 428-sonli qarori bilan, 2023 yil 1 dekabrdan boshlab Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari tomonidan tuman va shaharlarning iqtisodiy rivojlanishidan kelib chiqib, yig‘im miqdorini belgilash hamda ularga 0,5 dan 3,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlarni qo‘llash tavsiya etilganligi ko‘rsatib o‘tilsin.

3. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi viloyat hududiy boshqarmasining 2024 yil 22 yanvardagi 01-07/285 - sonli xati;

Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024 yil 7 fevraldagi 03-09/-01-18/631-sonli xulosa xati inobatga olinsin.

4. Viloyatda tashqi reklama ob’yektlarida (konstruksiyalarida) tashqi reklamani joylashtirish uchun oylik yig‘imlar miqdori 1-ilovaga muvofiq belgilansin.

5. Shu munosabat bilan, xalq deputatlari viloyat Kengashining 2020 yil 28 dekabrdagi VI-XXIV/123-son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Tashqi reklama vositalarini o‘rnatish chizmalari bo‘yicha na’munaviy shakllar 2-ilovaga muvofiq ma’qullansin.

7. Belgilab qo‘yilsinki, mazkur qaror 1-ilovasi bilan belgilangan viloyatda tashqi reklama ob’yektlarida (konstruksiyalarida) tashqi reklamani joylashtirish uchun oylik yig‘imlar miqdori hamda 2-ilovasi bilan ma’qullangan tashqi reklama vositalarini o‘rnatish chizmalari bo‘yicha na’munaviy shakllar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 31 avgustdagi 428-sonli qarori talablaridan kelib chiqib, viloyat hokimining tegishli qarori bilan tasdiqlanadi.

8. Viloyatda tashqi reklama ob’yektini o‘rnatishga bo‘lgan huquq uchun oylik yig‘imlardan tushadigan mablag‘lar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 29 dekabrdagi PQ-422-son qarori 6-ilovasi bilan tasdiqlangan Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, vazirliklar va idoralari tomonidan undiriladigan ayrim turdagi davlat bojlari, majburiy yig‘imlar, to‘lovlar, jarimalar va ajratmalar taqsimotiga asosan yo‘naltirisin.

9. O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish Qo‘mitasi viloyat hududiy boshqarmasi (A.Xolmatov) tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda mazkur Kengash qarori bilan belgilangan tashqi reklama ob’yektlarida (konstruksiyalarida) tashqi reklamani joylashtirish uchun oylik yig‘imlar miqdorini o‘rnatilgan tartibda qo‘llab borilishi, shuningdek, tashqi reklama vositalarini o‘rnatish chizmalari bo‘yicha na’munaviy shakllar *(viloyat hokimining tegishli qarori bilan tasdiqlangan)* asosida o‘rnatib borilishi yuzasidan nazorat tadbirlarini olib borsin.

10.Tuman (shahar) hokimliklariga:

- belgilangan hududda tashqi reklama ob’yektlari (konstruksiyalari) joylashtirish uchun beriladigan yer uchastkalari, davlat mulki bo‘lgan bino va inshootlarni aniqlash maqsadida doimiy ravishda xatlov o‘tkazish;

- tashqi reklama ob’yektlari (konstruksiyalari) tizimli monitoring qilish va ularni qonuniy joylashtirilganligini o‘rganish;

- tashqi reklama ob’yektlari (konstruksiyalari) joylashtirilgan reklamalar, shu jumladan ijtimoiy reklamal hisobini yuritish;

-yo‘lning qatnov qismida aholi turar-joy binolarining tashqi qismida har qanday turdagi shaxsiy e’lonlarin joylashtirilishiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

-ushbu sohada aniqlangan qonun buzilish holatlari bo‘yicha tegishli chora ko‘rish uchun viloyat Raqobatni rivojlantirish va Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish boshqarmasiga takliflar kiritib borish vazifasi yuklatilsin.

11. Viloyat hokimligi Axborot xizmati (D.Djurayev), Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (I.Halimbekov), O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish Qo‘mitasi viloyat hududiy boshqarmasi (A.Xolmatov) bilan birgalikda viloyat teleradiokompaniyasi hamda viloyatdagi boshqa ommaviy axborot vositalarida, hokimlik muassisligidagi gazetalarda *(viloyat hokimining tegishli qarori rasman e’lon qilingandan keyin ikki kundan kechikmay)* tashqi reklama ob’yektlarida (konstruksiyalarida) tashqi reklamani joylashtirish uchun oylik yig‘imlar miqdori hamda tashqi reklama vositalarini o‘rnatish chizmalari bo‘yicha na’munaviy shakllarini e’lon qilinishi hamda hokimliklarning rasmiy veb-saytlariga joylashtirilishini tashkil etsin.

12. Belgilansinki, tashqi reklama va axborot ob’yektini (konstruksiyasini) o‘rnatish hamda unda reklamani joylashtirishga bo‘lgan huquq uchun yagona oylik yig‘im miqdori belgilangandan (mazkur kengash qarori kuchga kirgan kundan) boshlab 15 kundan keyin kuchga kiradi;

13. Ushbu qaror rasmiy nashrda e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

14. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining “Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” hamda “Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyalari raislari zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi X.BOZAROV

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati Kengashining
2024-yil 29-martdagi
VI-66-35-11-0-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Xalq deputatlari viloyat
Kengashining
«___»_____2024 yildagi
_____-sonli qaroriga
1-ilova

## Viloyatda tashqi reklama ob’yektlari (konstruksiyalari) ni joylashtirish bo‘yicha oylik yig‘im MIQDORLARI

| № | Tashqi reklama vositalari turlari | Qarorga asosan belgilangan minimal yig‘im, 1 kv.m./so‘m (BHMning 5%)* | Tashqi reklama vositalari uchun oylik yig‘im miqdori, 1 kv.m./so‘m* | |
|---|---|---|---|---|
| | | | Tavsiya etilayotgan narx, 1 kv.m./so‘m (Farg‘ona, Qo‘qon, Marg‘ilon shaharlari) | Viloyatning boshqa tuman va shaharlarida va xalqaro ahamiyatga ega barcha avtomobil yo‘llarida tavsiya etilayotgan narx, 1 kv.m./so‘m |
| **qo‘llanilayotgan koyeffisisent** | | | **0,8** | **0,6** |
| 1 | Bilbordlar | 17 000 | 13 600 | 10 200 |
| 2 | Tom kurilmalari, binolarning tom qismlaridagi konstruksiyalar | 17 000 | 13 600 | 10 200 |
| 3 | Devor pannosi | 17 000 | 13 600 | 10 200 |
| **qo‘llanilayotgan koyeffisiyent** | | | **3** | **1,5** |
| 4 | Elektr ekranlar (video ekranlar, “yuguruvchi satrlar” displeylari va boshqalar) LED ekran | 17 000 | 51 000 | 25 500 |
| **qo‘llanilayotgan koyeffisiyent** | | | **2,0** | **1,5** |
| 5 | Yorug‘lik tarqatuvchi barcha tashqi reklama vositalari | 17000 | 34 000 | 25 500 |
| **qo‘llanilayotgan koyeffisiyent** | | | **1,5** | **1,5** |
| 6 | Xajmlik xarflar | 17000 | 25 500 | 25 500 |

| **Transport vositalarida (yo‘nalishlardagi avtobuslar bundan mustasno) reklamani joylashtirish uchun yig‘im miqdori** | | | |
|---|---|---|---|
| ***№*** | ***Transport vositalarining toifalari*** | ***o‘lchov birligi*** | ***BHMning*** |
| 1 | Yengil avtomobillar uchun 1 yillik to‘lov | dona | 1,5 baravari |
| 2 | Yuk avtomobillari uchun 1 yillik to‘lov | dona | 3 baravari |

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati
Kengashining
2024-yil 29-martdagi
VI-66-35-11-0-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Xalq deputatlari viloyat Kengashining
«___»_____2024 yildagi
_____-sonli qaroriga
2-ilova


**Farg‘ona viloyatida tashqi reklama vositalarini o‘rnatish chizmalari bo‘yicha na’munaviy shakllar**

**Farg‘ona viloyatida tashqi reklama joylashtirishning asosiy prinsiplari**

Reklama beruvchilar hamda reklama tarqatuvchilar tomonidan reklama vositalari orqali reklamalarni tarqatishda hududiy muhitning uyg‘un ko‘rinishini yaratish maqsadida tashqi reklama ob’yektlarida reklamalarning joylashtirilishida asosiy tamoillarga rioya etilishi lozimligi qo‘yidagilarda ko‘rsatiladi;





Madaniy meros ob’yektlarida tashqi reklama vositalarini o‘rnatish taqiqlanadi



Tarixiy yodgorliklarning tashqi fasadlariga reklamalar o‘rnatish taqiqlanadi.





Avtomobil yo‘llarining ajratuvchi mintaqalariga reklamalar o‘rnatish taqiqlanadi.




Ko‘p qpvatli binolarning kirish-chiqish qismiga, avtomobil va piyodalar xarakatiga xalaqit qiladigan minaqalarga reklamalar o‘rnatish taqiqlanadi.


# Reklama vositalarining turlari







**Siti format**- avtomobil yo‘li hamda piyodalarga qarab turuvchi kichik turdagi (1.5m*1.8m o‘lchamdagi) ikki tomonlama reklama vositasi







**Bayroqchali** - avtomobil yo‘li hamda piyodalarga qarab turuvchi kichik turdagi (1.5m*1.8m o‘lchamdagi) ikki tomonlama reklama vositasi







**Ma’lumotlar stendi -** avtomobil yo‘li hamda piyodalarga qarab turuvchi kichik turdagi (4.0m*2.0m o‘lchamdagi) ikki tomonlama reklama vositasi








**Axborot ko‘rsatkichlar** - avtomobil yo‘li hamda piyodalarga qarab turuvchi kichik turdagi (1.1m*1.8m o‘lchamdagi) ikki tomonlama reklama vositasi





**Pilon** - avtomobil yo‘li hamda piyodalarga qarab turuvchi o‘rta turdagi (1.4m*2.8m o‘lchamdagi) ikki tomonlama reklama vositasi







**Uch burchak ustunli** - avtomobil yo‘li hamda piyodalarga qarab turuvchi o‘rta turdagi (1.4m*3.0m o‘lchamdagi) uch tomonlama reklama vositasi







**Senior** - avtomobil yo‘li hamda piyodalarga qarab turuvchi o‘rta turdagi (4.0m*3.0m o‘lchamdagi) ikki tomonlama reklama vositasi







**Aylana ustunli** - avtomobil yo‘li hamda piyodalarga qarab turuvchi o‘rta turdagi (2.3m*4.7m o‘lchamdagi) aylana reklama vositasi







**Stella** - avtomobil yo‘li hamda piyodalarga qarab turuvchi o‘rta turdagi (1.5-2.0m*3.0-15m o‘lchamdagi) ikki tomonlama reklama vositasi







**Bilbord** - avtomobil yo‘li hamda piyodalarga qarab turuvchi katta turdagi (6.0m*3.0m o‘lchamdagi) ikki tomonlama reklama vositasi







**Bilbord plyus**- avtomobil yo‘li hamda piyodalarga qarab turuvchi katta turdagi (8.0m*4.0m o‘lchamdagi) ikki tomonlama tunda yoritgichli reklama vositasi







**Super sayt**- avtomobil yo‘li hamda piyodalarga qarab turuvchi katta turdagi (5.0m*10.0m o‘lchamdagi) ikki tomonlama tunda yoritgichli reklama vositasi





**Brendmauer pano**- avtomobil yo‘li hamda piyodalarga qarab turuvchibinoning tashqi qismida katta turdagi (5.0-10m*10.0-20 m o‘lchamdagi) bir tomonlama reklama vositasi




**Tom usti reklama konstruksiyasi**- avtomobil yo‘li hamda piyodalarga qarab turuvchi binoning tom qismida katta turdagi bir tomonlama (tunda yoritgichli) reklama vositasi







**LED monitor**- avtomobil yo‘li hamda piyodalarga qarab turuvchibinoning tashqi qismida katta turdagi (3,0-5,0m*6,0-10,0 m o‘lchamdagi) bir tomonlama reklama vositasi

**Yuqoridagi tashqi reklama konstruksiyasida konstruksiya egasi nomi, telefon raqami, reklama vositasi raqami va QR kodi bo‘lishi shart**


**Siti format reklama vositasining o‘rnatilish ko‘rinishi**





**Bayroqchalik reklama vositasining o‘rnatilish ko‘rinishi**





**Ma’lumotlar stendi reklama vositasining o‘rnatilish ko‘rinishi**





**Axborot ko‘rsatkichlar reklama vositasining o‘rnatilish ko‘rinishi**





**Pilon  reklama vositasining o‘rnatilish ko‘rinishi**




**Uch burchak ustunli reklama vositasining o‘rnatilish ko‘rinishi**





**Senior reklama vositasining o‘rnatilish ko‘rinishi**





**Aylana ustunli reklama vositasining o‘rnatilish ko‘rinishi**





**Stella reklama vositasining o‘rnatilish ko‘rinishi**





**Bilbord reklama vositasining o‘rnatilish ko‘rinishi**





**Bilbord plyus reklama vositasining o‘rnatilish ko‘rinishi**




**Super sayt reklama vositasining o‘rnatilish ko‘rinishi**





**Brendmauer pano reklama vositasining o‘rnatilish ko‘rinishi**




**Tom usti reklama vositasining o‘rnatilish ko‘rinishi**




**Led monitor reklama vositasining o‘rnatilish ko‘rinishi**


1
2
3
4
5
6